IQRO JURNALI , IQRO JOURNAL, ИКРО ЖУРНАЛИ
ISSN:2181-4341| wordlyknowledge.uz/index.php/iqro
Volume 21 Issue 2 May 2026

DAVLAT-XUSUSIY HAMKORLIK (DXH) MOHIYATI, SHAKLLARI VA MEXANIZMLARI

Khodjaeva Nodiraxon Abdurashidovna
Ilmiy rahbar: i.f.d (DSc), professor
Toshkent Davlat transport universiteti,
ORCID ID: https://orcid.org0009-0008-1048-413X

Masharipov O‘rolbek Ozod o'g'li
Tashkent State Transport University
First-Year Undergraduate Student
Email: urolbekmasharipov@gmail.com
ORCID ID: https://orcid.org/0009-0005-3918-2969

Doi: https://doi.org/10.5281/zenodo.20290912

ANNOTATSIYA

Mazkur ilmiy maqolada davlat-xususiy sheriklikning (DXSH) nazariy mohiyati, asosiy shakllari va amaliy mexanizmlari tahlil qilinadi. DXSH davlat va xususiy sektor o‘rtasida uzoq muddatli shartnomaviy munosabatlar asosida jamoat xizmatlarini ko‘rsatish va infratuzilmani rivojlantirishning samarali modeli sifatida tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Tadqiqotda qiyosiy tahlil, tizimli yondashuv va hujjatlarni o‘rganish usullari qo‘llanilgan. Natijada DXSHning uch asosiy shakli – konsessiya, qo‘shma korxonalar va hayot sikli shartnomalarining o‘ziga xos xususiyatlari, afzalliklari va cheklovlari aniqlanib, O‘zbekiston qonunchiligi va amaliyoti bilan bog‘liq holda tahlil qilingan. Xususan, O‘zbekistonda davlat-xususiy sheriklik sohasidagi huquqiy baza – 2019-yilda qabul qilingan “Davlat-xususiy sheriklik to‘g‘risida”gi Qonun, unga kiritilgan o‘zgartirishlar hamda amaldagi loyihalar misolida mexanizmlarning ishlash tamoyillari yoritilgan. Shuningdek, konsessiya shartnomalarining asosiy xususiyatlari va qo‘llanish sohalari, hayot sikli shartnomalarining infratuzilma loyihalarida qo‘llanilishi tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: davlat-xususiy sheriklik, konsessiya, qo‘shma korxona, hayot sikli shartnomalari, risklarni taqsimlash, infratuzilma loyihalari, O‘zbekiston.

ABSTRACT

This scientific article analyzes the theoretical essence, main forms, and practical mechanisms of public-private partnership (PPP). PPP is increasingly gaining importance as an effective model for providing public services and developing infrastructure based on long-term contractual relations between the public and private sectors. The study uses comparative analysis, systematic approach, and document analysis methods. The results identify the specific

features, advantages, and limitations of the three main forms of PPP – concession, joint ventures, and life cycle contracts – in relation to Uzbekistan‘s legislation and practice. In particular, the legal framework of PPP in Uzbekistan – the Law “On Public-Private Partnership” adopted in 2019, amendments made to it, as well as the principles of mechanism operation illustrated by current projects – is analyzed. Furthermore, the main features and areas of application of concession agreements, as well as the use of life cycle contracts in infrastructure projects, are examined.

Keywords: public-private partnership, concession, joint venture, life cycle contracts, risk allocation, infrastructure projects, Uzbekistan.

АННОТАЦИЯ

В данной научной статье анализируются теоретическая сущность, основные формы и практические механизмы государственно-частного партнерства (ГЧП). ГЧП как эффективная модель предоставления общественных услуг и развития инфраструктуры на основе долгосрочных договорных отношений между государственным и частным секторами приобретает все большее значение. В исследовании использованы методы сравнительного анализа, системного подхода и изучения документов. В результате выявлены особенности, преимущества и ограничения трех основных форм ГЧП – концессии, совместных предприятий и контрактов жизненного цикла применительно к законодательству и практике Узбекистана. В частности, освещена правовая база ГЧП в Узбекистане – Закон «О государственно-частном партнерстве», принятый в 2019 году, внесенные в него изменения, а также принципы работы механизмов на примере действующих проектов. Кроме того, проанализированы основные особенности и сферы применения концессионных соглашений, а также использование контрактов жизненного цикла в инфраструктурных проектах.

Ключевые слова: государственно-частное партнерство, концессия, совместное предприятие, контракты жизненного цикла, распределение рисков, инфраструктурные проекты, Узбекистан.

KIRISH

Zamonaviy iqtisodiyotda davlat-xususiy sheriklik (DXSH) infratuzilmani rivojlantirish, ijtimoiy ahamiyatga ega loyihalarni amalga oshirish va davlat byudjeti yukini kamaytirishning samarali mexanizmlaridan biri sifatida tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Byudjet mablag‘larining cheklanganligi va aholi ehtiyojlarining ortib borayotganligi sharoitida DXSH davlat va xususiy sektor o‘rtasida resurslar, risklar va mas’uliyatni taqsimlash imkonini beradi. DXSHning asosiy g‘oyasi – davlatning normativ-huquqiy va nazorat funksiyalarini saqlab qolgan holda, xususiy sektorning moliyaviy, texnologik va boshqaruv resurslaridan samarali foydalanishdan iborat.

O‘zbekiston Respublikasida davlat-xususiy sheriklikning huquqiy asoslari 2019-yil 10-mayda qabul qilingan “Davlat-xususiy sheriklik to‘g‘risida”gi Qonun (O‘RQ-537) bilan belgilangan. Ushbu Qonun davlat-xususiy sheriklik sohasidagi munosabatlarni, shu jumladan konsessiyalarni, qo‘shma korxonalarni va boshqa shakllarni tartibga soladi. Qonunda davlat-xususiy sheriklik “davlat sherigi va xususiy sherikning muayyan muddatga yuridik jihatdan rasmiylashtirilgan, davlat-xususiy sheriklik loyihasini amalga oshirish uchun o‘z resurslarini birlashtirishiga asoslangan hamkorligi” deb ta’riflangan. Qonun 10 ta bob va 44 ta moddadan iborat bo‘lib, unda umumiy qoidalar, davlat-xususiy sheriklik sohasini davlat tomonidan tartibga solish, bitim taraflari, xususiy sherikni tanlash tartibi, loyihalarni tashabbus qilish va amalga oshirish, monitoring va hisobdorlik hamda moliyaviy qo‘llab-quvvatlash mexanizmlari belgilab berilgan. Qonun hujjatlariga ko‘ra, DXSH bitimining amal qilish muddati uch yildan kam bo‘lmasligi va qirq to‘qqiz yildan oshmasligi kerak.[1]

Mazkur tadqiqotning maqsadi – davlat-xususiy sheriklikning nazariy mohiyati, asosiy shakllari (konsessiya, qo‘shma korxonalar, hayot sikli shartnomalari) va amaliy mexanizmlarini tahlil qilish, shuningdek O‘zbekiston qonunchiligi va amaliyoti bilan bog‘liq holda ularning xususiyatlarini ochib berishdan iborat. Tadqiqot ob’ekti – davlat-xususiy sheriklik munosabatlari, predmeti esa ushbu munosabatlarning turli shakllaridir.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Davlat-xususiy sheriklik masalalari xorijiy va mahalliy adabiyotlarda keng tadqiq etilgan. Xalqaro amaliyotda DXSHning turli ta’riflari mavjud. Britannica ensiklopediyasining ta’rifiga ko‘ra, DXSH “davlat idorasi va xususiy sektor o‘rtasida jamoatga tovarlar yoki xizmatlar yetkazib berish bo‘yicha sheriklik” bo‘lib, u bir yoki bir nechta davlat tashkilotlarining bir yoki bir nechta xususiy tashkilotlar bilan birgalikda harakat qilishga rozi bo‘lishidan boshlanadi. PPP Alliance ma’lumotlariga ko‘ra, DXSH “davlat va bir yoki bir nechta xususiy sherik o‘rtasida jamoat aktivlari yoki xizmatlarini yetkazib berish bo‘yicha uzoq muddatli shartnomaviy kelishuv” bo‘lib, unda xususiy sherik odatda infratuzilma obyektini loyihalash, qurish, moliyalashtirish va/ yoki boshqaradi, sezilarli loyiha risklarini o‘z zimmasiga oladi va ishlash yoki foydalanishga qarab to‘lov oladi. DXSHning asosiy xususiyatlari – uzoq muddatlilik, jamoat xizmati yoki aktivi uchun hamkorlik, risklar, mas’uliyat va mukofotlarni bo‘lishishdir.[2]

Xalqaro adabiyotlarda DXSH shartnomalarining bir qancha turlari ajratiladi. Eng keng tarqalganlari qatoriga xususiy moliya tashabbuslari (PFI), konsessiyalar va qo‘shma korxonalar kiradi. Konsessiya – bu davlatning xususiy sherikka ma’lum muddatga davlat mulki va yer uchastkalaridan foydalanish huquqini berish

[1] O‘zbekiston Respublikasining “Davlat-xususiy sheriklik to‘g‘risida”gi Qonuni. 2019-yil 10-may, O‘RQ-537-son.

[2] PPP Alliance. (2025). Understanding Public-Private Partnerships.

shaklidir. Konsessiya (lotincha “concessio” – ruxsat, yon berish) atamasi xo‘jalik yuritish va chet el kapitalini jalb qilish shakli sifatida ta’riflanadi.[3]

Hayot sikli shartnomalari (life cycle contracts) DXSHning nisbatan yangi shakli bo‘lib, unda xususiy sherik loyihani loyihalash, qurish, moliyalashtirish, foydalanish va texnik xizmat ko‘rsatish bo‘yicha to‘liq mas’uliyatni o‘z zimmasiga oladi. Ushbu model aktivning butun hayot sikli davomida sifat boshqaruvini ta’minlaydi va uzoq muddatli shartnomalar orqali hayot sikli xarajatlarini samarali boshqarish imkonini beradi. Qozog‘iston tajribasida DXSHning ikki asosiy turi – institutsional (qo‘shma korxonalar) va shartnomaviy (ishonchli boshqaruv, davlat mulkini ijaraga berish, konsessiyalar, hayot sikli shartnomalari va boshqalar) shakllari ajratilgan.[4]

Mahalliy tadqiqotchilar tomonidan DXSHning huquqiy va institutsional jihatlari o‘rganilgan. 2021-yilda qabul qilingan o‘zgartirishlar bilan konsessiyaga oid munosabatlar “Davlat-xususiy sheriklik to‘g‘risida”gi Qonun bilan tartibga solinadigan bo‘ldi. Tadqiqotlarda DXSH shartnomasining huquqiy tabiati yuzasidan ilmiy doktrinada mavjud bo‘lgan uch asosiy yondashuv – ma’muriy-huquqiy, gibrid va xususiy-huquqiy konsepsiyalar qiyosiy tahlil qilingan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda qiyosiy tahlil, tizimli yondashuv va hujjatlarni o‘rganish usullaridan foydalanildi. Qiyosiy tahlil usuli orqali DXSHning turli shakllari – konsessiya, qo‘shma korxonalar va hayot sikli shartnomalarining huquqiy tartibga solinishi, risklarni taqsimlash mexanizmlari va amaliy qo‘llanish sohalari o‘zaro taqqoslandi. Tizimli yondashuv usuli DXSH loyihalarini institutsional, moliyaviy va huquqiy jihatlarning o‘zaro bog‘liq tizimi sifatida tahlil qilish imkonini berdi. Hujjatlarni o‘rganish usuli bilan O‘zbekiston Respublikasining “Davlat-xususiy sheriklik to‘g‘risida”gi Qonuni (2019), unga kiritilgan o‘zgartirishlar (2021), shuningdek xalqaro tashkilotlar va ilmiy nashrlarning DXSHga oid materiallari tahlil qilindi. Shuningdek, O‘zbekiston va xorijiy mamlakatlardagi DXSH loyihalarining amaliy misollari o‘rganildi.[5]

TAHLIL VA NATIJALAR

Davlat-xususiy sheriklikning asosiy g‘oyasi – davlat va xususiy sektor o‘rtasida resurslar, risklar va mas’uliyatni taqsimlash asosida jamoat ahamiyatiga ega loyihalarni amalga oshirishdir. DXSHning quyidagi asosiy prinsiplari mavjud:

---

[3] Britannica. (2026). Public-private partnership (PPP).

[4] General Legal Aspects Of Public Private Partnership In Kazakhstan. vLex.

[5] O‘zbekiston Respublikasining “Davlat-xususiy sheriklik to‘g‘risidagi qonunchilik takomillashtirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish, shuningdek ayrim qonun hujjatlarini o‘z kuchini yo‘qotgan deb topish haqida”gi Qonuni. 2021-yil 22-yanvar, O‘RQ-669-son.

davlat sherigi va xususiy sherikning qonun oldida tengligi, DXSHni amalga oshirishdagi qoidalar va tartib-taomillarning shaffofligi, raqobat va tanlov asosida xususiy sherikni aniqlash.

Xalqaro tajribada DXSHning bir qancha muhim xususiyatlari ajratiladi. Birinchidan, DXSH uzoq muddatli shartnomaviy kelishuvdir, chunki xususiy sherikning sarmoyasini qoplashi va loyihaning butun hayot sikli davomida samaradorlikka erishishi uchun yetarlicha vaqt kerak. Ikkinchidan, DXSHda xususiy sherik odatda loyihalash, qurish, moliyalashtirish va boshqarish kabi bir nechta funksiyalarni birlashtiradi. Uchinchidan, DXSHning asosiy tamoyillaridan biri – risklarni tomonlar o‘rtasida adolatli taqsimlashdir. Xususiy sherik loyiha bilan bog‘liq sezilarli risklarni (qurilish riski, talab riski, operatsion risk) o‘z zimmasiga oladi, davlat esa normativ va siyosiy risklarni saqlab qoladi.[6]

Konsessiya – DXSHning eng qadimiy va keng tarqalgan shakllaridan biridir. Konsessiya (lotincha “concessio” – ruxsat, yon berish) atamasi xo‘jalik yuritish va chet el kapitalini jalb qilish shakli bo‘lib, milliy iqtisodiyotni rivojlantirish yoki tiklash, tabiiy boyliklarni o‘zlashtirish maqsadida davlat yoki mahalliy hokimiyat idoralariga qarashli yer uchastkalari, qazilma boyliklar, korxonalar va boshqa xo‘jalik ob’yektlarini muayyan muddatga va shartlar bilan foydalanish uchun chet el kapitaliga berish haqidagi shartnoma yoki kelishuvdir.[7]

Konsessiyaning asosiy xususiyati shundaki, unda davlat xususiy sherikka o‘ziga tegishli bo‘lgan mulk va yer uchastkalaridan foydalanish huquqini beradi, shu bilan birga mulkka egalik huquqi davlat qo‘lida qoladi. Konsessiya shartnomasi chet ellik investor bilan tegishli konsessiya organi o‘rtasida tuziladi va ro‘yxatdan o‘tkazilgan paytdan boshlab kuchga kiradi. Xalqaro huquq bo‘yicha davlat shartnoma muddati tugaganidan keyin konsessiya amal qilishini to‘xtatishi mumkin.

Qo‘shma korxonalar DXSHning institutsional shakli hisoblanadi. Bunda davlat va xususiy sektor birgalikda yangi korxona yoki loyiha kompaniyasining ustav kapitalida ishtirok etadi. Ushbu modelda tomonlar boshqaruvda ishtirok etadi, foyda va zararni taqsimlaydi, shuningdek loyiha risklarini birgalikda boshqaradi. Qo‘shma korxonalarning asosiy afzalligi – tomonlarning uzoq muddatli va barqaror hamkorligini ta’minlash, strategik qarorlarni birgalikda qabul qilish imkoniyatidir. Biroq, bunday modelda qarorlarni muvofiqlashtirish murakkabligi va davlatning tijorat risklariga duchor bo‘lishi kabi kamchiliklar mavjud.

Hayot sikli shartnomalari (Life Cycle Contracts)

Hayot sikli shartnomalari DXSHning nisbatan yangi va rivojlanayotgan shaklidir. Ushbu modelda xususiy sherik loyihani loyihalash, moliyalashtirish, qurish, foydalanish va texnik xizmat ko‘rsatish bo‘yicha to‘liq mas’uliyatni o‘z zimmasiga oladi. Hayot sikli shartnomalarining asosiy maqsadi – aktivning butun

[6] Britannica. (2026). Public-private partnership (PPP).
[7] Xasanova, X. KONSESSIYALAR SHARTNOMASI TUSHUNCHASI VA MOHIYATI.

hayot sikli davomida (qurilishdan tortib to foydalanish muddati tugaguniga qadar) sifat va xarajat nazoratini ta’minlashdir.[8]

Ushbu model muhim afzalliklarga ega. Birinchidan, uzoq muddatli shartnomalar (odatda 20-30 yil) xususiy sherikni aktivning butun hayot sikli davomida uning holatini saqlashga majbur qiladi, chunki shartnoma oxirida aktiv yaxshi holatda davlatga qaytarilishi kerak.[9] Ikkinchidan, hayot sikli shartnomalari loyihaning turli bosqichlari o‘rtasidagi manfaatlar ziddiyatini bartaraf etadi – bitta kompaniya loyihalash, qurish va keyinchalik foydalanish uchun javobgar bo‘lgani sababli, qurilish bosqichida sifatga e’tibor qaratiladi. Uchinchidan, bu model risklarni samarali taqsimlash imkonini beradi: qurilish va operatsion risklar to‘liq xususiy sherikka o‘tadi.

O‘zbekiston amaliyotida DXSH

O‘zbekistonda DXSH loyihalari so‘nggi yillarda jadal rivojlanmoqda. Ayniqsa, energetika sohasida 11 milliard dollarlik 42 ta energiya va infratuzilma loyihasi ishga tushirilgan. Shuningdek, davlat-xususiy sheriklik asosida suv ta’minoti tarmoqlarini rivojlantirish va yangi tozalash inshootlarini barpo etish bo‘yicha keng imkoniyatlar mavjud.

O‘zbekiston qonunchiligida DXSH bitimining asosiy shartlari, amal qilish muddati, bitimni o‘zgartirish, to‘ldirish yoki bekor qilish asoslari, loyihani amalga oshirish uchun jalb qilingan mol-mulk va yer uchastkalarini berish tartibi belgilangan. DXSH to‘g‘risidagi bitimning amal qilish muddati uch yildan kam bo‘lmasligi va qirq to‘qqiz yildan oshmasligi kerak.[10]

XULOSA VA TAKLIFLAR

Davlat-xususiy sheriklikning uch asosiy shakli – konsessiya, qo‘shma korxonalar va hayot sikli shartnomalari – o‘zining huquqiy tartibga solinishi, risklarni taqsimlash mexanizmlari va qo‘llanish sohalari bilan farqlanadi. Konsessiya asosan tabiiy boyliklar va davlat mulki ob’yektlaridan foydalanish bilan bog‘liq loyihalarda qo‘llaniladi. Qo‘shma korxonalar uzoq muddatli va strategik ahamiyatga ega loyihalarda tomonlarning teng ishtirokini ta’minlaydi. Hayot sikli shartnomalari esa loyihaning barcha bosqichlarida yagona mas’uliyat va sifat nazoratini ta’minlab, infratuzilma loyihalari uchun eng samarali model hisoblanadi.

O‘zbekiston amaliyotida DXSH loyihalari, ayniqsa energetika sohasida, jadal rivojlanmoqda. 2019-yilda qabul qilingan “Davlat-xususiy sheriklik to‘g‘risida”gi Qonun va unga kiritilgan o‘zgartirishlar sohaning huquqiy asosini yaratdi. Biroq, mavjud amaliyotda loyihalarni tayyorlash sifatini oshirish, risklarni taqsimlash

[8] Senatorlar “Davlat-xususiy sheriklik to‘g‘risida”gi Qonunni ma’qulladilar. (2025). Xalq so‘zi.
[9] House of Commons. (2010). European Scrutiny Committee - Seventh Report.

[10] O‘zbekistonda 11 mlrd dollarlik 42 ta energetika va infratuzilma loyihasi ishga tushirildi. (2025). Demokrat.uz.

mexanizmlarini takomillashtirish va monitoring tizimini mustahkamlash kabi muammolar saqlanib qolmoqda.

Aniqlangan muammolarni bartaraf etish va davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarining samaradorligini oshirish maqsadida quyidagi takliflar ishlab chiqilgan. Birinchidan, loyihalarni tayyorlash sifatini oshirish, moliyaviy modellashtirish va texnik-iqtisodiy asoslash bo‘yicha malakali mutaxassislarni tayyorlash markazini tashkil etish maqsadga muvofiq. Ikkinchidan, risklarni taqsimlash mexanizmlarini takomillashtirish, davlat va xususiy sherik o‘rtasida risklarni adolatli va shaffof taqsimlashning standart metodologiyasini ishlab chiqish lozim. Uchinchidan, DXSH loyihalarini monitoring va baholash tizimini mustahkamlash, loyihalarni amalga oshirishning barcha bosqichlarida mustaqil monitoring olib boruvchi mexanizmni joriy etish kerak. To‘rtinchidan, xalqaro moliya institutlari (XVJ, Jahon banki, OTB, YTTB) bilan texnik ko‘mak va moliyaviy vositalar bo‘yicha hamkorlikni kengaytirish, ularning DXSH loyihalarini tayyorlash va baholash bo‘yicha tajribasidan kengroq foydalanish maqsadga muvofiq.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasining “Davlat-xususiy sheriklik to‘g‘risida”gi Qonuni. 2019-yil 10-may, O‘RQ-537-son.
2. O‘zbekiston Respublikasining “Davlat-xususiy sheriklik to‘g‘risidagi qonunchilik takomillashtirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish, shuningdek ayrim qonun hujjatlarini o‘z kuchini yo‘qotgan deb topish haqida”gi Qonuni. 2021-yil 22-yanvar, O‘RQ-669-son.
3. Senatorlar “Davlat-xususiy sheriklik to‘g‘risida”gi Qonunni ma’qulladilar. (2025). Xalq so‘zi.
4. Britannica. (2026). Public-private partnership (PPP).
5. PPP Alliance. (2025). Understanding Public-Private Partnerships.
6. PPP Certification Guide. (n.d.). 4.1 Term Definition.
7. Xasanova, X. (2025). KONSESSIYALAR BO’YICHA SHARTNOMALARNI ISHLAB CHIQISH. “Наука и инновация”, 3(3), 24–26.
8. Xasanova, X. KONSESSIYALAR SHARTNOMASI TUSHUNCHASI VA MOHIYATI.
9. Kozarovski, D. (2006). Public Private Partnerships - A Solution Worth Pursuing Despite Their Complexity. UNSW Law Journal, 29(3), 308.
10. House of Commons. (2010). European Scrutiny Committee - Seventh Report.